



NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi
asosida shakllantirildi)






Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


3

22 879



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 281



Oilaviy korxonona

144



Unitar korxonona

6 240



Xususiy korxonona

18



Aksiyadorlik jamiyati


426



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022-yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-avgust oylarida)






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 1 372 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 162 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 281 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 223 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45 taga yoki 83,2 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 23 906 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 667 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22 879 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 234 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 051 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 336 taga yoki 90,0 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 320 tani tashkil etib, ulardan 313 tasi yoki 97,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 30 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 29 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga yoki 1,1 martaga oshgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	70	53	17
Qozog'iston Respublikasi	15	9	6
Xitoy Xalq Respublikasi	55	28	27
Qirg'iz Respublikasi	9	7	2
Tojikiston Respublikasi	12	9	3
Turkiya Respublikasi	46	18	28
Hindiston Respublikasi	14	6	8
Janubiy Koreya Respublikasi	32	23	9
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	4	1	3

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	313	191	122
Namangan shahri	104	57	47
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	32	23	9
Namangan	21	18	3
Norin	12	7	5
Pop	29	19	10
To'raqo'rg'on	15	9	6
Uychi	18	14	4
Uchqo'rg'on	11	6	5
Chortoq	26	14	12
Chust	24	14	10
Yangiqo'rg'on	14	8	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 104 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 33,2 %), Kosonsoy 32 ta (10,2 %), Pop 29 ta (9,3 %), Chortoq 26 ta (8,3 %), Chust 24 ta (7,7 %), Namangan 21 ta (6,7 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (jami ro'yxatga olingan 36999 ta yuridik shaxslarning) ulushi Namangan shahri (33,2 %), Chust (8,0 %), Namangan va Uychi (6,6 %dan), Uchqo'rg'on (6,3 %), Pop, To'raqo'rg'on, Kosonsoy (6,2 %dan), Chortoq (6,0 %), Yangiqo'rg'on (5,3 %), Norin (5,1 %) hamda Mingbuloq (4,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi ro'yxatga olingan 3634 ta yuridik shaxslarning), ulushi Namangan shahrida (32,7 %), Uchqo'rg'on (8,5 %), Chust (8,0 %), Chortoq (7,6 %), Norin (6,9 %), Yangiqo'rg'on (6,4 %), To'raqo'rg'on (6,3 %), Uychi (6,0 %), Kosonsoy (5,6 %), Namangan (4,8 %), Pop (4,4 %) hamda Mingbuloq (2,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda (faoliyat ko'rsatayotgan 22879 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning) ulushi Namangan shahrida (36,3 %), Uychi, Chortoq (6,9 %dan), Pop, Kosonsoy (6,4 %dan), Namangan, Uchqo'rg'on (6,0 %dan), Chust (5,8 %), Norin, Yangiqo'rg'on (5,4 %dan), To'raqo'rg'on (5,0 %), Mingbuloq (3,5 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



2022- yilning yanvar-avgust oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi tashkil etilgan 223 ta oilaviy korxonalarining), ulushi Namangan shahri (38,1 %), Yangiqo'rg'on (15,7 %), To'raqo'rg'on (15,3 %), Chortoq (7,6 %), Namangan (5,4 %), Chust (4,5 %), Mingbuloq (3,1 %), Norin (2,7 %), Uychi (2,2 %), Kosonsoy, Pop, Uchqo'rg'on (1,8 %dan) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.